

KORXONALAR INVESTITSIYA FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH ORQALI MOLIYAVIY BARQARORLIKNI KUCHAYTIRISH YO‘LLARI

Asomidinova Mohigulbonu Oybek qizi

Fan va texnologiyalar universiteti.

“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrası
o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada korxonalarining investitsiya faoliyatini jadallashtirish orqali ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlash va raqobatbardoshligini oshirish masalalari tadqiq etilgan. Investitsiyalarning moliyaviy natijalarga ta’siri tizimli tahlil qilinib, kapital qo’yilmalarning samaradorligini baholash indikatorlari va ularni maqbullashtirish yo‘llari taklif etilgan. Tadqiqot davomida investitsiya va moliyaviy barqarorlik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ifodalovchi konseptual model ishlab chiqilgan bo‘lib, u korxonalarining tashqi risklarga chidamliligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: investitsiya faoliyati, moliyaviy barqarorlik, kapital qo’yilmalar, investitsion jozibadorlik, innovatsion rivojlanish, risklarni boshqarish, moliyaviy leveraj, rentabellik.

Аннотация

В данной статье исследуются вопросы обеспечения финансовой устойчивости и повышения конкурентоспособности предприятий за счет активизации их инвестиционной деятельности. Системно проанализировано влияние инвестиций на финансовые результаты, предложены индикаторы оценки эффективности капитальных вложений и пути их оптимизации. В ходе исследования разработана концептуальная модель, отражающая неразрывную связь между инвестициями и финансовой устойчивостью, которая способствует повышению устойчивости предприятий к внешним рискам.

Ключевые слова: инвестиционная деятельность, финансовая устойчивость, капитальные вложения, инвестиционная привлекательность, инновационное развитие, управление рисками, финансовый леверидж, рентабельность.

Abstract

This article explores the issues of ensuring financial stability and increasing the competitiveness of enterprises by intensifying their investment activities. The impact of investments on financial results is systematically analyzed, indicators for evaluating the effectiveness of capital investments and ways to optimize them are proposed. During the study, a conceptual model was developed that reflects the inextricable link between investment and financial stability, which serves to increase the resilience of enterprises to external risks.

Keywords: investment activity, financial stability, capital investments, investment attractiveness, innovative development, risk management, financial leverage, profitability.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy munosabatlarning transformatsiyalashuvi va global raqobatning kuchayishi sharoitida korxonalarining yashovchanligi nafaqat ularning joriy to'lov qobiliyati, balki strategik rivojlanish salohiyati bilan ham belgilanadi. Bunday salohiyatning asosiy manbai esa investitsiya faoliyatidir. Investitsiyalar korxonaga uchun nafaqat moddiy-texnik bazani yangilash vositasi, balki uning moliyaviy barqarorligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiquvchi strategik mexanizm hisoblanadi. Biroq, investitsiya jarayonlari tabiatan yuqori darajadagi noaniqlik va moliyaviy risklar bilan bog'liq bo'lib, ularni noto'g'ri boshqarish korxonaning moliyaviy muvozanatiga putur yetkazishi mumkin.

O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar va investitsiya muhitini yaxshilash borasidagi davlat siyosati korxonalar oldiga yangi talablarni qo'yimoqda. Endilikda korxonalar oldida turgan eng muhim masala — bu investitsiya faoliyatini faqatgina mablag' jalb qilish sifatida emas, balki moliyaviy barqarorlikni kuchaytirishning ichki resursi sifatida ko'rishdir. Investitsiyalarni faollashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni maqbullashtirish va mahsulotning raqobatbardoshligini ta'minlash bevosita korxonaning moliyaviy mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, hozirgi kunda ko'plab mahalliy korxonalar investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda qarz mablag'lariga haddan tashqari qaram bo'lib qolmoqdalar, bu esa ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir etmoqda. Investitsiya faoliyatini faollashtirish va bu orqali moliyaviy barqarorlikni kuchaytirishning konseptual yo'llarini ishlab chiqish, korxonalariga beqaror bozor sharoitida "iqtisodiy immunitet"ni shakllantirish imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi korxonalarda investitsiya faoliyatini boshqarishning zamonaviy usullarini tahlil qilish, investitsiyalarning moliyaviy barqarorlik indikatorlariga ta'sirini baholash hamda kapital qo'yilmalar samaradorligini oshirish orqali moliyaviy mustahkamlikni ta'minlash bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun maqolada investitsiyalar va moliyaviy muvozanat o'rtasidagi dialektik bog'liqlik hamda ularni optimallashtirish modellari batafsil ko'rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalarining investitsiya faoliyati va uning moliyaviy barqarorlikka ta'siri iqtisodiy ta'limotlar tarixida turli konsepsiyalar orqali talqin etib kelingan. Investitsiyalarning samaradorligi va kapital bahosi o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy asoslashda Uilyam Sharpning aktivlarni baholash modeli (CAPM) va Garri Markovising portfel nazariyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu klassik yondashuvlar investitsiya faoliyatida risk va daromadlilik o'rtasidagi optimal muvozanatni topish orqali korxonaning bozor qiymatini oshirish va moliyaviy mustahkamligini ta'minlashni nazarda tutadi.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda investitsiya faolligi va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlikka ikki yoqlama yondashiladi. Jumladan, Jeyms Van Xorn va Yujin Brigxem kabi olimlar o'z tadqiqotlarida investitsiya qarorlarini qabul qilishda

korxonaning likvidlilik darajasini saqlab qolish ustuvor vazifa ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, noto'g'ri hisoblangan investitsiya loyihasi hatto eng barqaror korxonani ham to'lov qobiliyatsizlik holatiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, investitsiyalarni faollashtirishda "moliyaviy xavfsizlik chegarasi"ni (margin of safety) hisobga olish konseptual ahamiyatga ega.

MDH mamlakatlari iqtisodchilari, xususan, I.A. Blank va V.V. Kovalev korxonaning investitsion resurslarini boshqarish mexanizmini alohida tizim sifatida o'rganganlar. Ular investitsiya faoliyatini korxonaning moliyaviy strategiyasining ajralmas qismi deb hisoblab, investitsiyalarning qaytuvchanligi (ROI) korxonaning ichki moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi asosiy drayver ekanligini asoslab berganlar.

Mahalliy olimlardan D. G'ozibekov investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini maqbullashtirish masalalarini tadqiq etgan bo'lsa, N. Jumaev va A. Vahobovlar o'z ilmiy ishlarida korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirish va kapital tuzilmasini modernizatsiya qilish orqali moliyaviy barqarorlikni kuchaytirish yo'llarini yoritib berganlar. Shunga qaramay, raqamli iqtisodiyot va yuqori noaniqlik sharoitida investitsiyalarning innovatsion yo'nalishlarini faollashtirish orqali korxonaning «moliyaviy immunitetini» oshirish masalalari hali ham qo'shimcha ilmiy izlanishlarni talab etmoqda.

Mazkur tadqiqot yuqoridagi olimlarning qarashlarini rivojlantirgan holda, investitsiya faoliyatini faollashtirish va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi sinergik bog'liqlikni yangicha konseptual yo'nalishlar asosida ochib berishga qaratilgan.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv hamda iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o'zaro bog'liqlikda o'rganish tamoyillari tashkil etadi. Korxonalarining investitsiya faoliyatini faollashtirish va bu orqali moliyaviy barqarorlikni kuchaytirish yo'llarini ishlab chiqishda nazariy umumlashtirish hamda amaliy-empirik metodlarning uyg'unligidan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida dastlab investitsiya faolligi va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi dialektik bog'liqlik nazariy jihatdan o'rganilib, bunda investitsiyalarning nafaqat aktivlar sifatidagi roli, balki ularning pul oqimlari va kapital rentabelligiga ta'siri deduksiya va induksiya metodlari yordamida tahlil qilindi.

Tadqiqotning yakuniy bosqichida to'plangan empirik ma'lumotlar asosida investitsiya faoliyatini faollashtirishning konseptual modeli ishlab chiqildi. Ushbu modelda investitsiya manbalarini diversifikatsiya qilish va risklarni boshqarishning innovatsion usullarini qo'llash orqali moliyaviy barqarorlikni kuchaytirish mexanizmlari loyihalashtirildi. Tadqiqotning ishonchliligi qo'llanilgan ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi va iqtisodiy tahlilning xalqaro tan olingan formulalari hamda iqtisodiy-matematik modellaridan foydalanilganligi bilan asoslanadi. Mazkur metodologik yondashuv olingan natijalarni amaliyotda qo'llash va korxonalarining investitsion strategiyasini optimallashtirish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsiya faoliyatining korxonada moliyaviy barqarorligiga ta'sirini o'rganish jarayonida kapital qo'yimalarning hajmi emas, balki ularning sifat tarkibi va qaytuvchanlik darajasi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi namoyon bo'ldi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, investitsiyalarni faollashtirish strategiyasi bevosita korxonaning ichki moliyaviy muhitini sog'lomlashtirishga xizmat qiladi. Xususan, texnologik modernizatsiyaga yo'naltirilgan investitsiyalar ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish orqali operatsion foyda marjasini kengaytiradi. Bu esa o'z navbatida korxonaning xususiy kapitalini kapitallashtirish imkoniyatini oshirib, tashqi qarz mablag'lariga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi va moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentining ijobiy dinamikasini ta'minlaydi.

Investitsiya faolligining moliyaviy barqarorlik bilan bog'liqligi pul oqimlarining samarali boshqarilishida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Raqamli texnologiyalarga va boshqaruv tizimlariga kiritilgan investitsiyalar korxonaning debitorlik qarzlarni yig'ish muddatini qisqartiradi hamda likvidli aktivlar aylanuvchanligini tezlashtiradi. Bu jarayon korxonada moliyaviy xavfsizlik zaxirasining shakllanishiga olib keladi va kutilmagan iqtisodiy tebranishlarga nisbatan ichki chidamlilikni oshiradi. Investitsiyalarning diversifikatsiya qilinishi esa bir manbaga qaramlikni kamaytirib, risklarni tarmoqlashtirish orqali umumiy moliyaviy muvozanatni saqlab qolishga yordam beradi.

1-jadval

Investitsiya loyihalarini amalga oshirish natijasida moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarining prognoz qiymatlari¹

Investitsion chora-tadbirlar yo'nalishi	Moliyaviy barqarorlikka ta'sir mexanizmi	Joriy holat (indikator)	Prognoz holat (indikator)	Ijobiy o'zgarish sur'ati, foizda
Asosiy vositalarni modernizatsiya qilish	Xarajatlar (tannarx) kamayishi hisobiga foyda va rentabellikning o'sishi, foizda	12	18	6,0
Raqamli texnologiyalarni joriy etish	Pul aylanishining tezlashishi va debitorlik qarzlarning kamayishi, likvidlilik	0,65	1,20	0,55
Investitsiyalarni diversifikatsiya qilish	Tashqi moliyaviy risklarga chidamlilik va moliyaviy mustaqillikning oshishi, avtonomiya	0,35	0,55	0,20
Innovatsion transport yechimlari (elektrobuslar)	Energiya va ekspluatatsiya xarajatlarining keskin tejalishi, qoplash koef.	1,45	2,15	0,70

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari.

Empirik tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, innovatsion yoʻnalishdagi investitsiyalar korxonaning rentabellik koʻrsatkichlarini barqarorlashtiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Aktivlar rentabelligi va xususiy kapital rentabelligi oʻrtasidagi ijobiy tafovut investitsiya faoliyatining toʻgʻri tashkil etilganidan dalolat beradi. Shuningdek, investitsiya loyihalarining sof keltirilgan qiymati va ichki daromadlilik normasining yuqoriligi korxonaning uzoq muddatli toʻlov qobiliyatini kafolatlovchi fundamental asos boʻlib xizmat qiladi. Demak, investitsiya faoliyatini faollashtirish korxonaga uchun nafaqat rivojlanish vositasi, balki uning moliyaviy poydevorini mustahkamlovchi konseptual mexanizmdir. Investitsiya va barqarorlik oʻrtasidagi bunday sinergiya korxonaning bozor qiymatini oshirish va strategik mustaqilligini taʼminlashda hal qiluvchi natijalarni beradi.

1-jadval korxonaning investitsiya strategiyasi va uning moliyaviy barqarorlikka taʼsiri oʻrtasidagi sabab-oqibat bogʻliqligini ifodalovchi konseptual model hisoblanadi. Jadvalning tahlili investitsiyalarning nafaqat texnik yangilanish, balki moliyaviy sogʻlomlashtirish vositasi ekanligini ochib beradi:

1. Aktivlar rentabelligi va samaradorlik transformatsiyasi Jadvalning birinchi yoʻnalishi - asosiy vositalarni modernizatsiya qilish orqali ROA (aktivlar rentabelligi) koʻrsatkichining 12% dan 18% gacha koʻtarilishidir. Bu shuni anglatadiki, korxonaga yangi texnologiyalar hisobiga ishlab chiqarish hajmini oshirib, tannarxni jilovlay olgan. 6 foizlik oʻsish korxonaning har bir birlik aktivdan olinadigan sof foydasini sezilarli darajada oshirib, investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi.

2. Likvidlilik va pul oqimlarining barqarorligi Raqamli texnologiyalarni joriy etish likvidlilik koeffitsiyentini 0,65 dan 1,20 gacha oshirishi prognoz qilingan. Bu korxonaning moliyaviy «iqtisodiy immuniteti» oshganidan dalolat beradi. Agar ilgari korxonaga oʻz majburiyatlarini bajarishda qiyinchiliklarga duch kelgan boʻlsa, investitsiyalardan keyin u joriy qarzlarni toʻliq qoplash imkoniyatiga ega boʻladi. Bu nafaqat moliyaviy koʻrsatkich, balki korxonaning bozordagi ishonchli hamkor sifatidagi nufuzini ham mustahkamlaydi.

3. Moliyaviy mustaqillik va strategik xavfsizlik Avtonomiya koeffitsiyentining 0,55 gacha koʻtarilishi jadvaldagi eng muhim strategik natijadir. Iqtisodiy nazariyaga koʻra, ushbu koʻrsatkich 0,5 dan yuqori boʻlishi korxonaning tashqi kreditorlarga qaramlikdan toʻliq chiqqanligini anglatadi. Investitsiyalar hisobiga xususiy kapitalning oʻsishi korxonani bankrotlik xavfidan himoya qiladi va kelgusida arzonroq kredit resurslarini jalb qilish uchun poydevor yaratadi.

4. Texnologik innovatsiyalar va xarajatlar optimizatsiyasi Elektrobuslar kabi innovatsion yechimlarning qoplash koeffitsiyentini 2,15 ga yetkazishi korxonaning operativ chidamliligini koʻrsatadi. Bu yoʻnalishdagi investitsiyalar anʼanaviy energiya resurslaridan tejash va ekologik subsidiyalar hisobiga korxonaning “moliyaviy xavfsizlik chegarasini” kengaytiradi.

1-jadvalda taklif etilgan chora-tadbirlar korxonani intensiv rivojlanish yoʻliga olib chiqadi. Tahlil shuni koʻrsatadiki, investitsiyalarning har bir yoʻnalishi aniq bir moliyaviy indikatorni yaxshilashga xizmat qiladi. Ushbu tizimli yondashuv

korxonaning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda va davlat byudjetiga bo'lgan yuklamani kamaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

2-jadval

Korxonalar investitsiya faoliyati samaradorligining yillar kesimidagi dinamikasi¹

Ko'rsatkichlar nomi	2023-yil	2024-yil	2025-yil	2025-yil/2023-yil farqi (+/-)
Umumiy investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm	45,6	85,4	120,2	74,6
Investitsiyalarning qaytuvchanlik koeffitsiyenti, foizda	8,4	14,2	22,5	14,1
O'z mablag'larining investitsiyadagi ulushi, foizda	15,0	28,0	45,0	30,0
Moliyaviy mustaqillik (avtonomiya) koeffitsiyenti	0,32	0,44	0,56	0,24
Investitsiyalarning sof samaradorligi, mln. so'm	1 200	5 400	12 800	11 600
Investitsiya kiritilgandan so'ng tannarx kamayishi, foizda	2,1	5,4	10,8	8,7

2-jadval ma'lumotlari korxonada investitsiya siyosatining strategik jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yilganligini va uning moliyaviy barqarorlikka ta'siri multiplikativ xarakter kasb etayotganini ko'rsatadi. Jadvalning yillar kesimidagi dinamikasi quyidagi muhim yo'nalishlar bo'yicha tahlil qilinadi:

1. Investitsiyalarning rentabellik transformatsiyasi Jadvalning eng diqqatga sazovor jihati — investitsiyalar hajmi oshishi bilan bir vaqtda ularning qaytuvchanlik koeffitsiyentining (ROI) 8,4% dan 22,5% gacha, ya'ni qariyb 3 barobarga o'sishidir. Bu ko'rsatkich korxonaning "ekstensiv" (faqat miqdor ketidan quvish) bosqichdan «intensiv» (sifat va yuqori texnologik samaradorlik) bosqichiga o'tganini isbotlaydi. 2025 yildagi 22,5 foizlik ko'rsatkich investitsiya loyihalari nafaqat o'zini oqlayotganini, balki korxonaning sof foydasiga salmoqli hissa qo'shayotganini anglatadi.

2. Moliyaviy mustaqillik va kapital tarkibining sog'lomlashishi Investitsiyalarni moliyalashtirishda o'z mablag'lari ulushining 15% dan 45% gacha ko'tarilishi strategik muhim natijadir. Bu korxonaning tashqi qarz (kredit) mablag'lariga bo'lgan qaramligi pasayganidan va ichki imkoniyatlar safarbar etilganidan dalolat beradi. Natijada, avtonomiya koeffitsiyenti 0,32 dan 0,56 gacha ko'tarilib, xalqaro me'yorlarda belgilangan xavfsizlik chegarasidan (0,5) o'tgan. Bu holat korxonaning moliyaviy mustaqilligi to'liq ta'minlanganini ko'rsatadi.

3. Operatsion samaradorlik va tannarx optimizatsiyasi Investitsiyalar hisobiga tannarxning 10,8% gacha pasayishi korxonaning bozordagi raqobatbardoshligini

¹ Korxonaning moliyaviy va investitsion hisobotlari asosida muallif ishlanmasi.

mustahkamlaydigan asosiy omildir. Tannarxning pasayishi «zanjirli reaksiya» hosil qiladi: xarajatlar kamayadi -> sof foyda ortadi -> ichki investitsiya manbalari kengayadi. Bu jarayon 2023 yildagi 2,1% lik past ko'rsatkichdan 2025 yilda 10,8% lik yuqori natijagacha o'sib, investitsiyalarning texnologik jihatdan to'g'ri yo'naltirilganini tasdiqlaydi.

4. Iqtisodiy naf va loyihalar jozibadorligi Sof keltirilgan qiymatning (NPV) 1,2 mlrd so'mdan 12,8 mlrd so'mgacha keskin o'sishi amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining korxonaning umumiy bozor qiymatini (aktivlarini) oshirayotganini anglatadi. 10 barobardan ziyod bo'lgan bu o'sish korxonaning kelgusi istiqboldagi moliyaviy potentsiali juda yuqori ekanligini va investorlar uchun xavfsiz maydonga aylanganini anglatadi.

2-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, 2023-2025 yillar oralig'ida korxonada investitsiya faoliyatining moliyaviy barqarorlik bilan sinergiyasi to'liq ta'minlangan. Korxonada faqatgina mablag' sarflovchi subyektdan, kiritilgan har bir so'm investitsiya hisobiga o'z moliyaviy poydevorini mustahkamlovchi barqaror tizimga aylangan. Ushbu dinamika korxonaning uzoq muddatli iqtisodiy xavfsizligini kafolatlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot va nazariy-amaliy tahlillar asosida shunday xulosaga kelish mumkin bo'ladiki, korxonalarda investitsiya faoliyatini faollashtirish moliyaviy barqarorlikni kuchaytirishning eng samarali va strategik yo'li hisoblanadi. Tadqiqot natijalari investitsiyalarning nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirishini, balki korxonaning ichki moliyaviy immunitetini mustahkamlashda ham hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatdi. Investitsiya jarayonlarini to'g'ri boshqarish kapital tuzilmasini maqbullashtirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va korxonaning bozor qiymatini oshirish orqali uzoq muddatli moliyaviy muvozanatni ta'minlaydi. Biroq bu jarayonda investitsiya loyihalarini tanlashda moliyaviy risklarni qat'iy nazorat qilish va investitsiyalarning qaytuvchanligi bilan likvidlilik darajasi o'rtasidagi mutanosiblikni saqlash korxonada xavfsizligi uchun o'ta muhimdir.

Korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirish va moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlash maqsadida bir qator ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, korxonalarda investitsiya manbalarini maqbullashtirish mexanizmini takomillashtirish, ya'ni qarz mablag'lari va o'z mablag'lari o'rtasidagi moliyaviy richag ta'sirini muntazam monitoring qilib borish lozim. Shuningdek, investitsiya faoliyatini faollashtirishda asosiy e'tiborni innovatsion va raqamli texnologiyalarga yo'naltirish zarur, chunki bunday kapital qo'yilmalar tannarxni pasaytirish orqali moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentini tabiiy ravishda oshiradi. Bundan tashqari, korxonalarda investitsiya loyihalarini baholashning zamonaviy konseptual modellarini joriy etish va ichki investitsion zaxira fondlarini shakllantirish tavsiya etiladi. Bunday yondashuv korxonalariga beqaror iqtisodiy muhitda nafaqat mavjud moliyaviy holatni saqlab qolish, balki investitsion o'sish orqali tizimli rivojlanish trayektoriyasiga chiqish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabr O‘RQ-598-son “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-4664142>
3. Vahobov A.V., Ibrohimov A.T., Ishankulov N.F. Moliyaviy tahlil. Darslik. - T.: «Iqtisod-Moliya», 2019. - 480 b.
4. G‘ozibekov D.G. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. - T.: «Moliya», 2003. - 332 b.
5. Jumaev N.X. Moliyaviy bozor: monografiya. - T.: «Akademnashr», 2021. - 320 b.
6. Ковалев В.В. Инвестиции: учебник. - М.: «Проспект», 2020. - 584 с.
7. Shernaev, A. A. "General methodological bases of tax planning in enterprises." International Journal of Economics, Commerce and Management United Kingdom ISSN 2348 0386 8.4 (2020): 357.
8. Shernaev, A. A. "Principles and methods of organization of the internal tax control system in joint stock company" International Journal of Economics, Business and Management Studies-ISSN (2021): 2347-4378.
9. Aqmirzayevich, Shernayev Akbar. “Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida moliyaviy menejmentni tashkil etish samaradorligini oshirish masalalari” Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS) Special Issue 2 (2022): 391-396.
10. Shernayev, Akbar Aqmirzayevich. “O‘zbekistonda davlat tashqi qarzini samarali boshqarish” Science and Education 4.6 (2023): 860-867.
11. Aqmirzayevich, Shernayev Akbar. “Aksiyadorlik jamiyatlarida soliqlarni rejalashtirishga tizimli yondoshuvni shakllantirishning nazariy asoslari” Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting 4.10 (2024): 274-281.
12. Aqmirzayevich, Shernayev Akbar. “Korxonalarda moliyaviy rejalashtirish va moliyaviy risklarni baholashning xorij tajribasi” Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика) 9 (2024): 92-104.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**